

# 1-mavzu

---

FERMER XO'JALIGIDA YANGI VA TEJAMKOR  
TEXNOLOGIYALAR FANINING PREDMETI, USULLARI VA  
VAZIFALARI

# Reja:

---

1. Fermer xo'jaligida yangi va tejamkor texnologiyalar fanining predmeti, usullari va vazifalari
2. Fermer xo'jaligida yangi va tejamkor texnologiyalarni qo'llash ahamiyati.
3. Fermer xo'jaliklarida innovatsion faoliyatni tashkil etish.
4. Fermer xo'jaliklari faoliyati rivojlanishida zamonaviy texnika-texnologiyalarni o'rni.

# Fermer xo'jaligida yangi va tejamkor texnologiyasi fanining predmeti, usullari va vazifalari

---

“Fermer xo'jaligida yangi va tejamkor texnologiyasi” fanining predmeti quyidagilardan iborat



fermer xo'jaligida zamonaviy tejamkor texnika-texnologiyalardan foydalanish usullarini aniqlash



xo'jalik faoliyatini ilmiy nuqtai-nazardan tashkil etish



mamlakatimiz qishloq xo'jaligini xalqaro darajaga olib chiqish ustuvor yo'nalishlarini o'rganish

# “Fermer xo‘jaligida yangi va tejamkor texnologiyalar” fanini o‘qitishning maqsadi quyidagilar

---

Talabalarga yangi va  
tejamkor  
texnologiyalari  
bozori  
kon'yunkturasini  
tadqiq qilish

Mazkur bozor  
sharoitlarida faoliyat  
yurgizishni o‘rgatish

Yangi va tejamkor  
texnologiyalarni  
amaliyotga tadbiq  
qilish usullarini  
aniqlash

# Fanni o'qitishda quyidagi masalalarni o'rganish vazifa etib belgilangan:

fermer xo'jaligida yangi va tejamkor texnologiyalgar fanining predmeti, usullari va vazifalari;



fermer xo'jaligida yangi va tejamkor texnologiyalarni jalb etishning nazariy asoslari;



fermer xo'jaliklarida yangi va tejamkor texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari;




fermer xo'jaliklarida suvni tejavchi yangi va tejamkor texnologiyalardan foydalanish yo'llari;



fermer xo'jaliklarida ekinlarni sug'orishda yangi va tejamkor texnologiyalardan foydalanish;

# Fanni o'qitishda quyidagi masalalarni o'rganish vazifa etib belgilangan:

---



Fermer xo'jaligida talabga javob beradigan quyidagi huquqiy, tashkiliy iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimi yaratilishi muhim ahamiyatga ega:

---

- ❖ mulkchilikning turli shakllari barpo etilishi natijasida erkin mulkiy munosabatlar vujudga kelishi qishloq xo'jaligida tadbirkorlikning har-xil turlarini yaratish, ularni rivojlantirish yo'llarini takomillashtirish, yer-suv islohotlarini tejamkor texnologiyalarni keng ko'lamda foydalanish yo'llarini aniqlab, amaliyotga tadbiq etish tajribasini oshirishga qaratish;
- ❖ tarmoqning cheklangan ishlab chiqarish resurslari (yer-suv, kapital, mehnat, intellektual qobiliyati)dan yangi va tejamkor texnologiyalardan samarali foydalanish, yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash, sotish, daromad, foyda va ularning taqsimlanishi, investitsiyalarni jalb etish, ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni maqsadga muvofiq joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda agrosanoat integratsiyasini xalqaro munosabatlar asosida tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimini mukammalshtirish

# Fan o'z predmetini o'rganishda foydalanadigan usullar

---

## BIRINCHI GURUH: UMUMFAN USULAR

ilmiy abstraksiya

induksiya

deduksiya

qiyosiy tahlil

tajriba

faraz

## IKKINCHI GURUH: MAXSUS USULLAR

monografik tadqiqotlar

iqtisodiy-matematik modellashtirish


iqtisodiy tahlil va sintez


iqtisodiy taqqoslash

iqtisodiy-statistik balansni aniqlash


# Fermer xo'jaligida yangi va tejamkor texnologiyalarni qo'llash ahamiyati


---


 fermer xo'jaligi ishlab chiqarishida cheklangan yer-suv, mehnat resurslari, moddiy-texnik ta'minot hamda investitsiyalarni tadbirkorlik faoliyati bilan uyg'unlashtirishda;

 fermer xo'jaligining respublika iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyatini oshirishda;

 qishloq xo'jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, ularni rivojlantirish yo'llarini aniqlashda;

 fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish samaradorligi va ular faoliyatini takomillashtirishda;

 fermer xo'jaligi ishlab chiqarishida ishlab chiqarish xarajatlari tarkibini kamaytirishda;

 yetishtirilgan mahsulotning hajmini, sifatini, raqobatbardoshligini oshirishda;

# Fermer xo'jaligida yangi va tejamkor texnologiyalarni qo'llash ahamiyati

---

fermer xo'jaligi ishlab chiqarishida iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda foydalanilayotgan baholar tizimini optimallashtirishda;

fermer xo'jaligi ishlab chiqarishida daromad va foydani aniqlash, ularni oqilona taqsimlashda;

fermer xo'jaligi ishlab chiqarishining qay darajada ixtisoslashganligini, joylashganligini hamda ichki va tashqi integratsiyalashuv jarayonlarini faollashtirishda;

yangi va tejamkor texnologiyalarini qayerdan, qanday qilib sotib olish hamda yetishtirilgan mahsulotlarni qachon, kimga, qanday tartibda sotish strategiyalarini ishlab chiqishda;

xorij hamda respublikamizdagi ilg'or fermer xo'jaliklarining erishgan yutuqlarini chuqur o'rganish va ularni xo'jaliklarga joriy qilish;

ekin maydonlari birligi hisobiga ko'proq va arzonroq mahsulot yetishtirish uchun kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni joriy qilish imkoniyatini yaratish uchun iqtisodiy tadbirlar ishlab chiqish.

# Yangi texnologiyani joriy etishda quyidagi tabiiy omillarni hisobga olish lozim:

---



Fermer xo'jaliklarining  
jaylashuv hududlariga



Ishlab chiqarishni tashkil  
etish sharoitlariga


# O'zbekiston Respublikasida fermerlik faoliyatini rivojlatirish lozim bo'lgan vazifalar, ularga:

---

- ❖ “Yosh fermerlar” xarakati doirasini kengaytirish, turli xildagi seminar va forumlar tashkil etish, yosh fermerlarni rag'batlantirish;
- ❖ respublikamizda faoliyat yurgazayotgan xorijiy davlatlarning vakolatxonalari bilan hamkorlikda fermer xo'jaliklariga yangi texnologiyalarni joriy qilish masalalarini ko'rib chiqish hamda mazkur yo'nalishda chet elda o'tkaziladigan o'quv kurslari, seminarlarda hamda ilmiy-amaliy loyihalarda qatnashish imkoniyatlarini kengaytirish;
- ❖ barcha viloyatlarning tumanlari qoshidagi fermer xo'jaliklari uchun xududlarda huquqiy, iqtisodiy, agrotexnik tadbirlari hamda ilmiy izlanishlarni olib borish bo'yicha konsalting markazlarini ochish;
- ❖ respublika fermer xo'jaliklarini xorijiy tejamkor texnologiyalar va ilg'or qishloq xo'jaligi texnologiyalari bilan tanishtirish hamda joriy etish maqsadida xorijiy fermer xo'jaliklari faoliyati bilan hamkorlikni kengaytirish.

# Fermer xo'jaliklarida innovatsion faoliyatni tashkil etish

Yer yuzida aholi sonining tobora oshib borishini hisobga olsak, qishloq xo'jalik mahsulotlariga talabni keskin oshib borishini kuzatishimiz mumkin. Bunda o'zaro bog'liqlik vujudga keladi. Innovatsiyaning ahamiyati ana shunda ahamiyatli.



# Innovatsiya orqali qanday natijalarga erishish mumkin?

- ❖ Qishloq xo'jalik mahsulotlarining yaroqliligi darajasining oshishi
- ❖ Resurs sarfi darajasi samaradorligi
- ❖ Ekologik xavfsizligi
- ❖ Tashish va saqlashga qulayligi
- ❖ Tayyor mahsulot chiqish darajasi oshishi
- ❖ Tolaning pishiqligi, mustahkamligi va sifati dajasi oshishi



## Muammo:

Har qanday jarayonda kuzatishimiz mumkinki, qayerda son yoki xajm ko'paysa, shu yerda sifat ham kamayadi. Bu holatni qishloq xo'jaligi mahsulotlarida ham kuzatishimiz mumkin. Ya'ni ularda mavjud bo'lgan vitaminlarning kamayishi. Amerika va Shved olimlari quyidagicha tahlil berganlar.



≠



**C  
vitamini  
15% ga**

**Fosfor  
9%ga**

**Kaltsiy  
16%ga**

**A vitmini  
18% ga**

**Temir  
15%ga**

# Fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini oshirish ishlarini sifatli hamda o'z vaqtida amalga uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

---

barcha haydaladigan maydonlari tuproq tarkibi va sifatini maxsus zamonaviy laboratoriya sharoitida qayta o'rganib chiqish va baholash;



yerlarni tuproq tipi, o'g'itlash me'yorlari hamda almashlab ekish nisbatlariga ko'ra o'g'itlab hamda ko'p yillik begona o'tlarga qarshi kurashni yangi texnologiyalar qo'llab o'z vaqtida va sifatli shudgorlash;



**muntazam ravishda yerlarning sho'rini yuvib turish;**



barcha agrotexnik va agrokimyo chora-tadbirlarini ilm-fan tavsiyalariga va ilg'orlar tajribalarini e'tiborga olgan holda amalga oshirish;

---

sug'orish tadbirlarini o'z vaqtida va tejamkor texnologiyalardan oqilona foylangan holda amalga oshirish;




qo'l terimida hosilning ifloslanishiga qarshi kuchli nazorat tashkil etish va toza tergan terimchilarga rag'batlantiruvchi mukofotlar joriy etish;



hosil yig'ib olingandan so'ng gektariga 10 tonnadan mahalliy o'g'it solib, maydonlarni tekislash, kuzgi ekishga tayyorlab qo'yish va boshqalar.

# Yangi texnika-texnologiyalarni joriy etish nima uchun kerak?

---



# Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qanday innovatsion ishlarni olib borish lozim:

---

Ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish;

O'simliklar zararkunandalariga qarshi biologik kurashning samarali usullarini qo'llash;

Chorva mollari bosh soni va mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish;

Chorvachilik tarmog'i ozuqa bazasini mustahkamlashda yem hashak ekinlarining birlamchi urug'chiligini tashkil etish bo'yicha ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirish.

# O'zbekistonda fermer xo'jaliklari faoliyatini yaxshilash uchun quyidagi ishlar amalga oshirildi:

---

- ❖ g'o'zaning turli tuproq iqlim sharoitlariga mos, sho'rlanish, qurg'oqchilik, garmsel, xavfli kasallik va zararkunandalariga chidamli hamda tezpishar, serhosil va tola sifati yuqori 30 ta yangi navi yaratilib, 20 ta ixtiro patenti olinganligi;
- ❖ yangi yaratilgan va iqlimlashtirilgan g'o'za navlari 2015 yil respublikamiz jami paxta maydonlarining 82 foiziga ekilganligi;
- ❖ bug'doy va arpaning yangi yaratilgan 40dan ziyod navi Davlat nav sinovidan o'tkazilib, ularning boshlang'ich urug'chiligi barpo etilganligi, ular hozirda jami g'alla maydonlarining 20 foizdan ortig'iga ekilayotganligi;

- 
- ❖ sabzavot, poliz va kartoshkaning mahalliy yangi navlari ekilgan maydonlar 2015 yilda jami ushbu ekinlar maydonlarining 60 foizini tashkil qilganligi;
  - ❖ olimlar tomonidan yaratilgan LT-4 lazerli yer tekislagich, TTZ-100 SR sabzavotchilik traktori, yerlarga ekish oldidan ishlov beruvchi kombinatsiyalashgan mashina, DR-4-30 diskli plug, mayda urug'larni saralaydigan va tozalaydigan turboelektrik qurilma, pnevmomexanik seyalka, don tozalash mashinasi, takomillashgan paxta terish mashinasi, universal purkagich, ochiq maydonlarga g'o'za qator orasiga bug'doy ekadigan seyalka kabi samarali, tejamkor texnik vositalari seriyali ravishda ishlab chiqarish uchun mashinasozlik korxonalariga topshirilganligi ko'plab ilmiy-amaliy natijalar ilm-fanning qishloq xo'jaligi, xususan, fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi muhim o'rin tutishidan dalolat beradi.



---

Fermer xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, sug‘oriladigan va lalmi dehqonchilik qilinadigan yerlar tuproq unumdorligini oshirish, o‘rmon yerlari, tog‘li, cho‘l hududlari va yaylovlardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy ishlarni olib borish;



---

Qishloq xo‘jalik ekinlari seleksiyasiva urug‘chilik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish va ko‘lamini kengaytirish, seleksiya yutuqlarini sinovlardan o‘tkazishda faol qatnashish;



---

Chorvachilik va naslchilik ishlari,  
veterinariya va veterinariya-sanitariya  
yoʻnalishida zamonaviy texnika-  
texnologiyalarni qoʻllash muammolari  
yuzasidan keng koʻlamli tadqiqotlar olib  
borish;



---

Ekin maydonlari meliorativ holatini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlashning intensiv agrotexnologiyalarni joriy qilish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida xarajatlarni kamaytirish va rentabellikni oshirish borasida tizimli asosda o‘zida qamrab olgan mhsus qishloq xo‘jalik sohasini rivojlanish kartasini ishlab chiqish.



# Xulosa

---

Mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan talabini toʻla va sifatli qondirish, eng avvalo, agrosanoat majmuasiining asosiy tarkibi boʻlgan qishloq xoʻjaligi tarmogʻining, xususan, fermer xoʻjaliklari faoliyatining rivojlanishi darajasiga bogʻliqdir. Qishloq xoʻjaligining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi oʻrni beqiyos boʻlgan holda bu sohani isloh qilish, fermer xoʻjaliklarida zamonaviy texnika texnologiyalarni qoʻllashni ilmiy izdanishlar asosida yanada takomillashtirish hozirgi kun dolzarb masalalari jumlasidan oʻrin olib turibdi.

E'tiboringiz uchun  
raxmat

---